

YASHIL IQTISODIYOT EVOLYUTSIYASI VA UNING ASOSIY TAMOIYILLARI

Abduraxmonova Iqboloy Ne'matulla qizi

Jahon iqtisodiyoti va Diplomatika Universiteti magistranti

998935530715 iqboloyabduraxmonova09@gmail.com

Ko'pchilik eko-iqtisodchilar hamda xalqaro ekologiya tashkilotlari tomonidan "yashil iqtisodiyotga" turlicha ta'riflar berib o'tilgan. Ham iqtisodiy ham ekologik jihatdan to'g'ri ta'rif UNEP (United Nations Environment Program) tomonidan berilgan: yashil iqtisodiyot "inson farovonligi va ijtimoiy tenglikning yaxshilanishiga, ekologik xavf va ekologik tanqislikning sezilarli darajada pasayishiga"⁷⁷ olib keladigan iqtisodiyotdir. Ya'ni, yashil iqtisodiyot bu sof yoki "yashil" texnologiyalarga asoslangan ekologik toza mahsulotlarni yaratishga qaratilgan rivojlanishning yangi bosqichi bo'lib, tabiatga yordam beradigan va foyda keltiradigan yangi texnologiyalar shuningdek, ekotizimlarni o'z ichiga oladi. Qolaversa, bu tizim mamlakat tabiatini yaxshilashga yordam beradigan iqtisodiyotning yangi tarmoqlariga bevosita yo'l ochishi shubhasiz. Yashil iqtisodiyot - bu odamlar va tabiat o'rtasidagi tinch munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishga intiladigan iqtisodning bir bo'limi. U tabiat va ishlab chiqarish jarayonlari bilan qanday munosabatda bo'lish kabi turli mavzularni qamrab oladi. Xalqaro Savdo Palatasi (ICC) o'zining "Yashil iqtisodiyotga o'tishning 10 ta sharti" hisobotida "yashil iqtisodiyotni iqtisodiy o'sish va ekologik mas'uliyat, bir-birini kuchaytiruvchi tarzda birgalikda ishlayotgan, taraqqiyot va ijtimoiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydigan tizim"⁷⁸ deb ta'riflagan. Yashil iqtisodiyotning maqsadlari aholining eng kambag'al qatlamlarini bo'ylik va aktivlar bilan ta'minlash, bo'ylikni hozirgi avlodlar o'rtasida adolatli taqsimlash va to'liq barqaror rivojlanishni o'z ichiga oladi. Samarali boshqaruvni targ'ib qilish barqaror rivojlanishga erishish uchun zaruriy shartdir. Yashil iqtisodchilarning ta'kidlashicha, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun barqaror va bashorat qilsa bo'ladigan makroiqtisodiy muhit zarur. Yashil iqtisodiyot muhiti diqqat bilan tekshiriladi va u shaffof va hisobdor bo'ladi hamda uning siyosati, rejaları va dasturlarini samarali amalga oshirishni ta'minlashda moliyaviy institutlar va boshqaruv tuzilmalarining roli juda muhim. Yashil iqtisodiyotga o'tish mutlaqo yangicha fikrlashni, shuningdek, turli sohalarda ishlay oladigan malakali mutaxassislar qobiliyatini va salohiyati shu bilan bir qatorda yetarli bilim va malaka talab qiladi.

2008 yildagi moliyaviy inqirozdan beri islohotga qaratilgan bir qancha tashabbuslarga javob sifatida iqtisodiy boshqaruvchilardan hamda hukumatlardan "yashil o'sish", "dekarbonizatsiya" va "yashil", "ko'k" yoki "aylanma" iqtisodiyotni joriy etish talab qilindi. Darhaqiqat, 2008 -yilda ro'y bergan moliyaviy inqirozdan zarar ko'rgan davlatlar xulosalariga ko'ra, ortiq bunday davom etish turli xil xavf xatar keltirib chiqarishi

⁷⁷ UNEP rasmiy saytidan olindi. <https://www.unep.org/regions/asia-and-pacific/regional-initiatives/supporting-resource-efficiency/green-economy>

⁷⁸ ICC. <https://iccwbo.org/news-publications/policies-reports/icc-green-economy-roadmap-a-guide-for-business-policymakers-and-society-2012/#:~:text=Recognizing that green economy>

mumkinligini hamda iqtisodiyotda tub burilishlar kerakligi, yangi texnologiyalarni amaliyotga qo'llash zaruriyatini, ilm -fanni ishlab chiqarishga tadbiq etish zarur. Shu sababli, bu sohada ishlaydigan bir qancha yirik muassasalar bir necha marotaba tajriba , o'rganish va sa'y-harakatlarni birlashtirish uchun uchrashdi.Ular yashil iqtisodiyot bo'yicha tamoyillar, prinsplar va yo'nalishlari aniqladilar. Doctor Muhammad Abduraufning yozishicha, yashil iqtisodiyot turli barqarorlik tamoyillariga asoslanadi. Tegishli adabiyot va amalda mavjud bo'lgan ba'zi printsiplar:

- Yerning yaxlitligi printsiipi: har bir inson yer va uning ekotizimlarini himoya qilishga burchlidir.

- Ifloslovchi to'laydi printsiipi: ifloslantiruvchilar atrof-muhitga etkazilgan zarar uchun javobgardir.

- Qadr-qimmat tamoyili: har bir inson yashash huquqiga ega.

- Adolat tamoyili: manfaatlar va yuklar barcha manfaatdor tomonlar o'rtasida adolatli taqsimlanishi kerak.

- Moslashuvchanlik printsiipi: xilma-xillik va diversifikatsiya barqarorlik va hayot sifatining dastlabki shartlaridir.

- Boshqaruv printsiipi: siyosat, qoidalar va qoidalarni o'rnatish barcha zarar ko'rgan odamlarni o'z ichiga olgan shaffof va ishtirokchi jarayonni talab qiladi.

- Sayyora chegaralari: odamlar bizning xavfsiz sayyoramiz faoliyat ko'rsatish maydonini belgilaydigan "sayyora chegaralarini" kesib o'tishmoqda. Olimlarning fikriga ko'ra, biz iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikni yo'qotish va azot aylanishiga aralashuv uchun bu chegaralarni allaqachon kesib o'tdik va okeanlarni kislotalash, chuchuk suvdan foydalanish, yerdan foydalanishdagi o'zgarishlar va fosfor aylanishiga aralashish bo'yicha Yer chegaralariga qarab ketmoqdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.The World Bank and the Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. 2022. Towards a Greener Economy in Uzbekistan. ©World Bank."

2. Порфирьев Б.П., "Зеленая" экономика: реалии, перспективы и пределы роста. - М. Карнеги, 2013. 3. www.unep.org - Birlashgan Millatlar Atrof-muhit dasturining rasmiy sayti

4. www.worldbank.org - Jahon bankining rasmiy ma'lumotlari

5. "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O'zbekistonda "Yashil" O'sish va Iqlim O'zgarishi bo'yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To'plami. Jahon banki: Washington D.C."

6. 2019-yil 4-oktabrdagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" Iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori